

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN JINOIY HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHALARI

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Qo'shiyev Mirjalol Saidvali o'g'li.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada voyaga yetmagan bolalarga nisbatan qo'llanadigan jinoiy huquqiy ta'sir choralari qo'llash jihatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Yoshlar, siyosat, islohot, voyaga yetmagan bolalar, jinoyat, huquq, jamiyat, jinoyatchilik.*

Mamlakatning rivojlanishi va taraqqiy etishi ko'p jihatdan yoshlarning qo'lidadir. Jahonning rivojlangan davlatlari yoshlar siyosatiga katta e'tibor qaratishmoqda, shu jumladan, O'zbekiston ham jamiyatning barcha sohalarida ayniqsa sud-huquq tizimida bir nechta islohotlar amalga oshirmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy vazifasi demokratik huquqiy davlat barpo etish va voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta'minlash va yod g'oyalardan himoya qilishga qaratilgan. Bunda voyaga yetmaganlar uchun qo'llaniladigan jazolash tizimini liberallashtirilishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidagi maruzasida "Biz voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan qo'llaniladigan jazolash tizimini qayta ko'rib chiqmog'imiz zarur. Aminmanki, bu sohada liberallashtirish jarayoni hali davom etadi. Tan olish kerak, yoshlar orasidagi jinoyatchilikning sababi – ko'pincha biz kattalar mas'ul bo'lgan ularning tarbiyasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarning natijasidir" deb aytib o'tgan edilar. Mana shu fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, yoshlar orasidagi jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri bu uning ota-onasi tomonidan yo'l qo'yilgan e'tiborsizlik natijasida ular orasida jinoyatchilik avj olmoqda. Mamlakatimizning jinoyat qonunchiligi insonparvarlik, odillik prinsplariga asoslangan holda, jinoyat sodir etgan ayollar va yoshlarga nisbatan jazo tayinlashda bir qator yengilliklar nazarda tutib o'tilgan. Davlat rivojlanar ekan rivojlanish bilan hamohang holda uning qonunlarini ham rivojlantirish, liberallashtirish lozim hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik holatlarining ko'p uchrayotganligi davlatning asosiy muammosi bo'lib qolmoqda. Davlat tomonidan ularni jazolash tizimini liberallashtirish kun tartibiga aylanmoqda. Chunki ularni qilgan qilmishi uchun tezda jazolash emas balki ularni qayta tarbiyalash va qilgan qilmishlari xato ekanligini ko'rsatib berishimiz kerak. Jinoyat qonunchiligi va jazo tizimini liberallashtirish voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan ular tomonidan sodir etilgan qilmishlar uchun choralar belgilashda insonparvarlik, rahmdillik ruhi bilan sug'orilgan normalarning ustivorligini belgilab qo'ydi. Bu qatlam ichida voyaga yetmaganlar alohida diqqat e'tiborni talab qiladi. Odatda voyaga yetmagan shaxs hayotiy tajribaga ega bo'lmaganligi onggi va irodasi to'liq shakllanmaganligi sababli boshqalar ta'siriga beriluvchan bo'ladi. Voyaga yetmaganlar o'z

qilgan qilmishlarining ijtimoiy xafli ekanliklarini, qilmish qanday huquqiy oqibatlariga olib kelishini anglab yetmaydi yoki aqliy qobiliyat to'liq shaklanmagan bo'ladi. Bunday vaziyatda ularning ijtimoiy va ruhiy holatini hisobga olgan holda ularga nisbatan ish yuritish lozim.

Davlat statistika qo'mitasi bergan statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda voyaga yetmaganlar jinoyati umumiy jinoyat sonining 18.5%ni tashkil etgan. 2020-yilda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 53,5 %ga, jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar soni esa 56%ga o'sgan. 2021-yilda esa har ikkala ko'rsatkichlar ikki barobarga ko'payganligini, 2022-yil voyaga yetmaganlar umumiy jinoyatlar soni sddasad foizni tashkil etgan.

Ayrim olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari jumlasiga quyidagilarni kiritadi: yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri; o'qishni tashlab ketgan o'smirlar uzoq vaqt muayyan ish bilan shug'ullanmasligi; o'smirning noto'g'ri tarbiyalanishini belgilovchi shart-sharoit omillari; yoshi katta jinoyatchilarning dalolatchiligi; zo'ravonlik va qonunsizlikni ifodalovchi kitoblar va filmlar ta'siri.

Majburlov choralari tuzilishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Barcha ta'sir choralari voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalashda o'ziga xos xususiyatiga ega. Voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligini oldini olish, ularga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralarni amalga oshirish vazifasi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika komissiyasi"ga yuklatildi. Ushbu komissiya tarkibi bo'lgan Tuman (shahar) komissiyalari Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmaganlarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralari sifatida quyidagilarga haqli:

- voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

- ogohlantirish chiqarish;

- o'n besh yoshga to'lgan voyaga yetmagan zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklash yoki belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan ortiq bo'lmagan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

- o'n olti yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solish;

- voyaga yetmaganni o'z ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki nodavlat notijorat tashkiloti kuzatuviga topshirish;

- voyaga yetmaganni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish.

Jamiyatda g'arazli insonlar ko'paymoqda va ular bolalardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ular voyaga yetmaganlarni jinoyat yo'lga olib kirishga, jamiyatni ichdan yemirishga harakat qilishmoqda. Boshqa shaxslar tasirida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni qilmishdan pushaymonlik darajasini hisobga olib, ularni jamiyat uchun foydali bo'lgan shaxs qilib yetishtirish uchun ularga nisbatan jazo chorasini tayinlayotganda extiyotkor bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olishda qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari aniq huquqiy tartibga solinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jinoyatlarni oldini olishda qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarning ko'pchiligi normativ hujjatlar bilan tartibga solingan choralari qo'llaydigan o'rganlarning vazifalari va vakolatlari aniq belgilab berilishi lozim.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan maxrum qilish va shu kabi umumiy jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni qo'llanilishi salbiy natija bermoqda va kelajakda xavfli jinoyatchilar ko'payishiga zamin yaratmoqda. Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etisining oldini olish masalasi yurtimizda barchani o'yantirayotgan eng og'riqli va dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Chunki kelajagimiz yosh avlodning barkamolligi bilan bog'liq. Ularni tarbiyalash, jamiyat uchun foydali, ma'naviy sog'lom qilib yaratish asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Yoshlarni huquqlarini himoya qilish nafaqat o'zbekiston respublikasining balki xalqaro hamjamiyatning asosiy va birlamchi maqsadidir. Ularning huquqlarini himoya qilish uchun turli xil huquqiy mexanizmlarlar ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning eng bosh maqsadi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo choralari liberallashtirishdan iborat bo'lmoqda. O'zi bilib yoki bilmay huquqbuzarlik sodir etib qo'ygan yoshlarni qayta tarbiyalash, ularni jamiyatdan ajratmagan holda turli xil ta'sir choralari ko'rishni davlat o'ziga ustuvor vazifa qilib olgan. Qariyb barcha davlatlarda voyaga yetmagan huquqbuzarlar jazo obyekt sifatida emas, balki ijtimoiy rehabilitatsiya subyekti hisoblanadi. Darhaqiqat, ozodlikdan mahrum qilish joylarida voyaga yetmagan shaxs og'irroq jinoyatlar uchun sudlangan yoki g'ayriijtimoiy qarashlari mustahkam boshqa o'smirlar ta'siriga tushishi, uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, aynan voyaga yetmaganlar uchun tayinlangan jazo uni jazolash emas, balki tarbiyalash vazifasini amalga oshirishi lozim. Bu fikrlar juda to'g'ri hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi voyaga yetmagan shaxslarning qayta tarbiyalanish darajasi ancha past hisoblanadi, ular uchun huddi u yer jinoyat maktabiga aylanib qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi IIB ning 2005-yil 5-avgustdagi 210-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarida voyaga yetmaganlar bilan huquqbuzarliklarini oldini olish bo'linmalari faoliyati bo'yicha yo'riqnoma.

2. Ismailov N.T. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning individual profilaktikasi. Yurid. fan. nomz. ilm. dar. olish uchun diss... avtoref. - Toshkent: TDYU, 2006.

3. Rustambaev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. T.2. Umumiy qism. Jazo to'g'risida ta'limot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO, 2011

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi "Voyaga etmaganlar jinoyati haqidagi sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori

5. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон